

## ANTROPONIMLARNI TADQIQ QILISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI

**Shamshetova Biybiayim Janibek qizi,**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*E-mail: [bibka.xom@gmail.com](mailto:bibka.xom@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada antroponimlarni tadqiq qilishning metodologik tamoyillari, nazariy asoslari va ilmiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Unda antroponimikaning obykti, vazifalari, shaxs nomlarining lingvistik, tarixiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari yoritiladi. Maqolada antroponimlarni o'rganishda etimologik-tarixiy, lug'aviy-semantik, funksional, sotsiolingvistik, etnolingvistik va lingvokulturologik usullarning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik yondashuvning antroponimik tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** antroponimika, antroponimlar, shaxs nomlari, metodologik tamoyillar, antroposentrizm, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika.

**Аннотация.** В данной статье анализируются методологические принципы, теоретические основы и научные подходы к исследованию антропонимов. Рассматриваются объект и задачи антропонимики, а также лингвистические, исторические, социальные и культурные особенности личных имен. В статье обосновывается значение этимолого-исторического, лексико-семантического, функционального, социолингвистического, этнолингвистического и лингвокультурологического методов при изучении антропонимов. Особое внимание уделяется антропоцентрическому подходу, который в современной лингвистике выступает важной методологической основой антропонимических исследований.

**Ключевые слова:** антропонимика, антропонимы, личные имена, методологические принципы, антропоцентризм, лингвокультурология, социолингвистика.

**Annotation.** This article analyzes the methodological principles, theoretical foundations, and scientific approaches to the study of anthroponyms. It examines the object and main tasks of anthroponymy, as well as the linguistic, historical, social, and cultural features of personal names. The article substantiates the importance of etymological-historical, lexical-semantic, functional, sociolinguistic, ethnolinguistic, and linguocultural methods in anthroponymic research. Special attention is paid to the anthropocentric approach, which serves as an important methodological basis for the study of personal names in modern linguistics.

**Key words:** anthroponymy, anthroponyms, personal names, methodological principles, anthropocentrism, linguoculturology, sociolinguistics.

**Kirish.** Antroponimika – onomastika (nomshunoslik) fanining shaxs nomlarini o'rganuvchi bo'limi bo'lib, u insonlarga qo'yilgan ism-shariflar majmuini (antroponimlar tizimini) tadqiq etadi. Antroponimikaning obykti – insonning o'ziga xos nomlari, jumladan, shaxsning ismi, otasining ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi kabi barcha turdagi nomlardir[1]. Ushbu soha inson ismlarining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishini, ma'no-mohiyatini, geografik tarqalishi va qo'llanish doirasini hamda antroponimlar tizimining tuzilishi va taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, antroponimika ismlar mazmunida saqlanuvchi turli ma'lumotlarni ham tahlil qiladi: masalan, nom egasining otanasi va nasl-nasabiga aloqadorligi, millati, kasb-kori yoki qaysi hududdan ekanligi kabi xususiyatlar ism orqali bilib olinishi mumkin. Darhaqiqat, har bir xalqning ismlari o'sha xalqning tarixi, turmush tarzi va madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lib,

shaxs nomi orqali uning qaysi millat va madaniyatga mansubligini, hatto tarixiy ildizlarini aniqlash mumkin – ismlar milliy til, madaniyat va tarixiy ma'lumotlarning saqlovchisi sifatida qimmatlidir.

Antroponimika fani vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi[2]:

– Etimologik-tarixiy tahlil: shaxs ismlarining kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyotini o'rganish, eski qatlamdagi ismlarni tiklash, ularning asl ma'nolarini talqin qilish. Bu jarayonda har bir ismning paydo bo'lishi va o'zgarishi jamiyat tarixi kontekstida ko'rib chiqiladi.

– Lug'aviy-semantik tahlil: antroponimlarning lingvistik tuzilishi, grammatik shakllanishi va ma'no jihatlarini tadqiq etish. Bunda ismlarning tarkibiy qismlari (masalan, ikki asosli an'anaviy ismlar, patronimik qo'shimchalar va boshqalar) hamda ularning lug'aviy ma'nosi tahlil qilinadi.

– Funktsional tahlil: ismlarning nutq va jamiyatdagi bajaradigan vazifalarini aniqlash. Xususan, shaxs ismining nomlash, shaxsni identifikatsiya qilish va boshqalardan farqlash kabi asosiy kommunikativ funksiyalari mavjudligi ta'kidlanadi. Antroponimlar inson hayotida yoshga doir, ijtimoiy yoki oilaviy maqom o'zgarishi bilan bog'liq holda o'zgarishi, turli vaziyatlarda rasmiy yoki norasmiy variantlarda qo'llanishi ham ushbu funktsional jihatga kiradi.

– Ijtimoiy-madaniy tahlil: ismlarning jamiyat va madaniyat bilan aloqador jihatlarini o'rganish. Shaxs nomlari orqali etnik va diniy an'analar, madaniy qadriyatlar, davr ruhiyati kabi omillar tadqiq etiladi. Masalan, muayyan tarixiy davrlarda urf bo'lgan ismlar, mashhur shaxslar nomidan qo'yilgan ismlar yoki diniy e'tiqod bilan bog'liq ismlar jamiyat tafakkuri va urf-odatlarini aks ettiradi.

– Amaliy vazifalar: zamonaviy antroponimika amaliy jihatdan ham muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan, davlat hujjatlarida ismlarni standartlash, yangi tug'ilgan chaqaloqlarga ism tanlashda maslahatlar berish, antroponimik lug'atlar va ma'lumotnomalar tuzish, shuningdek, tilshunoslik, tarix, genealogiya kabi fanlar uchun ismlarni ma'lumot manbai sifatida tayyorlash antroponimist olimlar yordami bilan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi vazifalar antroponimikaning keng qamrovli ilmiy soha ekanini ko'rsatadi. Antroponimikaning boshqa fanlar (tarix, etnografiya, sosiologiya, psixologiya va b.) bilan tutashib ketishi ham aynan shundan dalolat beradi. Chunki shaxs nomlari tili va shakliga ko'ra tilshunoslik obyekti bo'lsa ham, mazmun-mohiyati va vazifasiga ko'ra jamiyat va madaniyat hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois antroponimik tadqiqotlar kompleks xarakterga ega bo'lib, turli yondashuv usullarini birlashtirgan holda olib boriladi.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Har qanday ilmiy tadqiqot singari, antroponimlarni o'rganishda ham ma'lum metodologik tamoyillar va usullarga amal qilinadi. Metodologiya deganda, odatda, tadqiqotning nazariy asoslari, umumiy tamoyillari

va usullar majmuasi tushuniladi. Umumiy metodologik tamoyillar ilmiy izlanishlarga xos bo'lgan universal yondashuvlarni ifodalaydi; xususiy metodologik tamoyillar esa aynan antroponimika obyekti va maqsadlaridan kelib chiqqan holda shakllangan maxsus uslubiy yo'nalishlardir. Antroponimlarni tadqiq etuvchi olimlar umumiy ilmiy tamoyillarga rioya qilish bilan birga, ushbu sohaning o'ziga xos xususiyatlarini ham e'tiborda tutadilar. Jumladan, ilmiy haqqoniylik (verifikatsiya) tamoyili natijalarni asosli dalillarga tayantirib tekshirishni talab etsa, tarixiy-kontekstual yondashuv tamoyili har bir ismga uning paydo bo'lgan davri va ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda yondashishni taqozo etadi; shuningdek, antroponimlarni tadqiq etishda ularni to'g'ri farqlash va tasniflash muhim ahamiyatga ega ekani alohida qayd etiladi[3]. Demak, antroponimika tadqiqotlarida ishning bosqichma-bosqich mantiqiy izchillik bilan olib borilishi, qo'llanilayotgan usul va yondashuvlarning nazariy jihatdan asoslangan hamda dalillangan bo'lishi talab etiladi.

Antroponimlarni tadqiq qilish usullarini umumiy qilib ikki bosqichga ajratish mumkin: materiallarni to'plash va tahlil-talqin qilish bosqichlari. Ma'lumot to'plash bosqichida tadqiqot uchun zarur bo'lgan antroponimik birliklar va ularning tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar yig'iladi. Bunda turli manbalarga tayaniladi: dala tadqiqoti materiallari (og'zaki ma'lumotlarni joylarda to'plash), qadimgi bitiklar va epigrafik yozuvlar, tarixiy hujjatlar to'plamlari, maxsus antroponimik lug'at va ensiklopediyalar, statistik ro'yxatlar (masalan, aholi ro'yxatlari, soliq hujjatlari), gazeta-jurnallardagi e'lon va yillnomalar, muayyan hudud yoki sulolaga oid mahalliy monografiyalar, zamonaviy internet bazalari – xullas, inson ismlari haqida to'plangan barcha yozma va elektron manbalar ishga solinadi. To'plangan materiallar keyinchalik kartografik usul yordamida xaritaga tushirilishi, statistik jadval va diagrammalar tuzish orqali qayta ishlanishi mumkin.

Tahlil va talqin bosqichida antroponimlar to'plangan ma'lumotlar asosida turli jihatlama tahlil qilinadi va ilmiy xulosalar chiqariladi. An'anaviy lingvistik tadqiqot usullari antroponimlarni o'rganishda ham asosiy ahamiyatga ega: ismlarning tuzilishi, kelib chiqishi, boshqa tillar va dialektlardagi muqobillari shu usullar orqali aniqlanadi. Geografik metod yordamida ismlarning hududiy tarqalishi, areallari xaritalashtirilib, ma'lum hudud yoki elatga xos nomlar qatlami belgilab chiqiladi. Statistik metod ismlarning qo'llanish tezligi, mashhurligi yoki kamayib borishi kabi jarayonlarni aniqlash imkonini beradi – masalan, ma'lum bir davrda eng ommabop bo'lgan ismlar yoki noyob ismlar ulushi kabi ko'rsatkichlar statistika orqali tahlil qilinadi. Zamonaviy tadqiqotlarda kompyuter lingvistika usullari (masalan, elektron matn korpuslari va ma'lumotlar bazasini avtomatik tahlil qilish) ham jalb etilib, ko'plab ismlar ustida tezkor va aniq hisob-kitoblar olib borish osonlashdi. Nihoyat, yuqorida ta'kidlanganidek, kartografik usul antroponimik tahlilda muhim o'rin tutadi – ismlarning muayyan geografik makondagi tarqalishi xarita shaklida tasvirlanib, ma'lumotlarni vizual tahlil qilish imkonini yaratadi.

Yuqoridagi usullar majmuasi antroponimlarni lingvistik, tarixiy va madaniy nuqtai

nazardan kompleks o'rganish imkonini beradi. Darhaqiqat, zamonaviy lingvistika ilmida antroponimik birliklarning milliy, madaniy, tarixiy va ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra talqin etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa shuni ko'rsatadiki, shaxs nomlarini faqat sof lingvistik qurilma sifatida emas, balki ularning ortida turgan madaniy-etnografik va ijtimoiy omillar bilan birgalikda o'rganish zarur. Masalan, biror ismdagi fonetik yoki grammatik xususiyatni tahlil etish bilan birga, o'sha ismning qaysi xalq orasida, qaysi davr va madaniy muhitda paydo bo'lganini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Lingvistik yondashuv ismlar tuzilishi va ma'nosini aniqlashga qaratilgan bo'lsa, madaniy (lingvokulturologik) yondashuv nomning xalq urf-odatlarini va madaniy qadriyatlardagi o'rnini o'rganadi, tarixiy yondashuv esa ismlarni tarixiy taraqqiyot jarayonida tahlil qiladi. Misol uchun, tarixiy antroponimika shaxs nomlarini jamiyat tarixining bir qismi sifatida ko'rib, antroponimik ma'lumotlardan tarixiy manba sifatida foydalanish usullarini ham ishlab chiqqan maxsus soha hisoblanadi[4]. Demak, antroponimlarni tadqiq qilish usullari ichida sof lingvistik tahlil bilan bir qatorda, tarixiy-komparativ rekonstruksiya, etnolingvistik tahlil, sotsiolingvistik kuzatish, psixolingvistik tahlil kabi ko'p qirrali metodlar qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, sotsionomastik yondashuv (ismning jamiyatdagi o'rni va funksiyasini o'rganish) va etnolingvistik yondashuv (ismning xalq mentaliteti va madaniyatidagi o'rnini tahlil qilish) antroponimikaning bugungi kundagi dolzarb yo'nalishlaridandir. Bularning barchasi antroponimlarni tadqiq etishda keng qamrovli, integrativ metodologik platforma zarurligini ko'rsatadi – ya'ni, turli usullarni birlashtirgan holda, shaxs nomini har tomonlama o'rganishgina to'laqonli ilmiy natija beradi.

**Tadqiqot natijalari.** Hozirgi zamon tilshunosligida **antropotsentrik paradigma** yetakchi o'rin egallab borayotgani ma'lum. **Antropotsentrizm** (so'zning ma'nosi yunoncha *anthropos* – “inson” va lotincha *centrum* – “markaz” so'zlaridan kelib chiqqan) tilni va lingvistik hodisalarni inson omiliga bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, til tizimini o'rganishda markazga “inson va uning tafakkuri” qo'yiladi – til birliklari ularning foydalanuvchisi, so'zlovchi subyekt nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tilshunoslikda bu yondashuv XX asr oxiri – XXI asr boshlarida keng rivoj topdi va matn lingvistikasi, pragmalingvistika, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalarda til hodisalarini inson psixologiyasi, madaniyati, dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'rganishga turtki bo'ldi[5].

Antroponimika sohasida esa antropotsentrizm ayniqsa tabiiy va zaruriy metodologik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Zero, shaxs nomi bevosita inson bilan bog'liq: ism inson hayoti va faoliyatining ajralmas qismi, uning jamiyatdagi o'rni va o'zlik identifikatsiyasining vositasidir. Shu sababli antroponimlarni tadqiq qilishda faqat lingvistik yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi – ismni to'la anglash uchun uning ortidagi insoniy omillar majmuini ham ko'rish lozim. Olimlarning ta'kidlashicha, antroponim o'z tabiatiga ko'ra murakkab hodisa bo'lib, u ma'lum davrning ijtimoiy-madaniy kontekstiga

bog‘liq holda shakllanadi; shu bois shaxs nomini faqat lingvistik jihatdan o‘rganish uni to‘liq tasavvur qilish imkonini bermaydi, antroponimlarni tadqiq etishda inson tafakkuri va madaniyatini ham qamrab oluvchi yondashuv zarur. Xususan, kognitiv tilshunoslik doirasida antroponimlar ma’no va konseptual tizimning bir qismi sifatida o‘rganilsa, lingvokulturologiya va sotsiolingvistika doirasida ular xalqning madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan aloqadorlikda tahlil etiladi.

Antropotsentrik yondashuv antroponimikaning zamonaviy tadqiqotlarida metodologik poydevor vazifasini o‘tamoqda. Masalan, olimlar antroponimik tizimni xalqning o‘zini o‘zi anglashi (milliy o‘zlikni anglash) va milliy psixologiyasini aks ettiruvchi asosiy materiallardan biri sifatida ko‘rmoqdalar. Ismlar tarkibida xalqning tarixi, urf-odati, dunyoqarashi kabi ko‘plab qatlamlar mujassam bo‘lgan bo‘lib, ismlar xalqning “madaniy xotirasi”ni saqlovchi bir hodisadir. Masalan, etnik jihatdan uzoq yillar yopiqlikni saqlagan, tashqi ta’sirlarga kam uchragan jamiyatlar antroponimiyasi qadimiy nomlash an’analarini hozirgacha saqlab qolgan bo‘lishi mumkin – buni o‘sha xalqlardagi ismlarni lingvokulturologik tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Demak, antroponimlarni o‘rganishda inson omiliga tayanish – ularning jamiyat va madaniyatdagi o‘rnini, nom egasining shaxsiy va milliy xususiyatlari bilan bog‘liqligini inobatga olish – ilmiy jihatdan samarali yondashuvdir.

Yuqorida bayon qilingan jihatlar har ikki til materiali uchun qo‘llaniladigan yagona metodologik platformani tanlash masalasini ham kun tartibiga keltiradi. Agar tadqiqot, masalan, ikki turli til yoki madaniyatga oid antroponimlarni qiyoslashni nazarda tutsa, antropotsentrizm ana shu yagona metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Chunki antropotsentrik yondashuv har bir tilning o‘ziga xos milliy jihatlarini hisobga olgan holda, ularning ortidagi umuminsoniy mezonlarni birlashtiradi. Boshqacha aytganda, antropotsentrizm har ikki til antroponimiyasini qiyosiy o‘rganishda umumiy metodologik mezonlarni belgilab beradi: bu mezonlar inson nomining til qurilishidagi o‘rni bilan birga, jamiyat va madaniyatdagi funksiyasini ham qamrab oladi. Misol uchun, turli tillardagi ism-shariflar tizimini yagona konseptual doirada (masalan, “Ism – shaxs – jamiyat” uchligi doirasida) tahlil qilish orqali, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash mumkin. Shu tariqa, antropotsentrik-lingvokulturologik platforma ikki (yoki undan ortiq) til antroponimikasini integrativ yondashuv asosida o‘rganish, natijada izchil qiyosiy tahlil olib borish uchun metodologik zamin yaratadi.

**Xulosalar.** Xulosa qilib aytganda, antroponimlarni tadqiq etish metodologiyasining samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq. Avvalo, fanlararo metodologik tamoyillarga sodiqlik, ya’ni ilmiy izlanishda aniqlik, izchillik va dalillarga tayanish muhimdir. Shuningdek, antroponimikaning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib, kompleks yondashuvni qo‘llash – lingvistik, tarixiy va madaniy usullarni uyg‘unlashtira olish talab etiladi. Zamonaviy antropotsentrik tamoyil esa bu borada yagona negiz bo‘lib, inson va uning tili o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tadqiq etish imkonini beradi. Ana shu metodologik

yondashuvga tayangan holda, ishimizda har ikki til antroponimiyasi materiallari tahlil qilinadi va tegishli ilmiy xulosalar chiqariladi. Bu esa tadqiqot natijalarining har ikki til doirasida ham adekvat va qiyoslanishi mumkin bo'lishini, ya'ni metodologik birxillik ta'minlanishini kafolatlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berdieva, Z. S. The role of anthroponyms in the development of world linguistics / Z. S. Berdieva // World Bulletin of Social Sciences (WBSS). – 2024. – Vol. 38. – P. 26–27.
2. Koziyeva I. K. Anthroponymy as a branch of onomastics // JournalNX: A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. — 2023. — Vol. 9, issue 9. — P. 84–87.
3. Boamfa I. Preliminary Considerations on the Anthroponymy Research Methodology //4th International Multidisciplinary Scientific Conference on Social Sciences and Arts Sgem2017. – 2017. – C. 61-68.
4. Berdieva, Z. S. The role of anthroponyms in the development of world linguistics / Z. S. Berdieva // World Bulletin of Social Sciences (WBSS). – 2024. – Vol. 38. – P. 26–27.
5. Qodirova, X. M. Zamonaviy tilshunoslik muammolari [Matn]: uslubiy qo'llanma / X. M. Qodirova. Urganch: Khwarezm travel, 2024. — 120 b.

